USMONOVA Dilafro‘z Madamin qizi
Farg‘ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabi
“Xalq cholg'ulari ijrochiligi” bo‘limi
oliy toifali o‘qituvchisi

DUTOR IJROCHILIK SAN’ATIDA ANSAMBL KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): USMONOVA D. Dutor ijrochilik san’atida ansambl ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari // Madaniyat ta’limi – Культурное образование – Cultural Education. № 2 (2026) B. 92.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada dutor cholg‘u ijrochiligini rivojlantirishda ansambl faoliyatining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda dutor cholg‘usining o‘zbek milliy musiqa san’atidagi o‘rni, ansambl ijrochiligining mohiyati va vazifalari, dutor ijrochilarida ansambl ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni hamda ansambl faoliyatining ijrochilik mahoratini oshirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, dutor ijrochiligini o‘qitishda ansambl mashg‘ulotlarining pedagogik ahamiyati ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari ansambl faoliyati dutor ijrochilarining texnik tayyorgarligi, musiqiy eshituv qobiliyati, ritmik barqarorligi, sahna madaniyati va badiiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Ansambl mashg‘ulotlari orqali talabalarda jamoaviy hamkorlik, mas’uliyat va ijodiy faollik kabi muhim kasbiy kompetensiyalar shakllanadi. Maqolada dutor ijrochiligini rivojlantirish maqsadida ansambl mashg‘ulotlarini takomillashtirish, repertuarni boyitish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: *dutor, ansambl ijrochiligi, ansambl ko‘nikmalari, musiqa ta’limi, musiqa pedagogikasi, xalq cholg‘ulari, ijrochilik mahorati, musiqiy eshituv, ritm hissi, repertuar, jamoaviy ijro, pedagogik tajriba, sahna madaniyati, kasbiy tayyorgarlik*

УСМАНОВА Дилафруз Мадамин кизи
преподаватель высшей категории
отделения «Исполнительство на народных инструментах»
Ферганская специализированная школа искусств

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ АНСАМБЛЕВЫХ НАВЫКОВ В ИСКУССТВЕ ИСПОЛНИТЕЛЬСТВА НА ДУТАРЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются роль и значение ансамблевого исполнительства в развитии исполнительского мастерства на дутаре. В

исследовании рассматриваются место дутара в узбекском национальном музыкальном искусстве, сущность и задачи ансамблевого исполнительства, процесс формирования ансамблевых навыков у исполнителей на дутаре, а также влияние ансамблевой деятельности на совершенствование исполнительского мастерства. Кроме того, с научно-педагогической точки зрения раскрывается педагогическое значение ансамблевых занятий в обучении игре на дутаре. Результаты исследования показывают, что ансамблевая деятельность способствует развитию технической подготовки, музыкального слуха, чувства ритма, сценической культуры и художественного мышления исполнителей на дутаре. Ансамблевые занятия формируют у студентов навыки коллективного взаимодействия, ответственности и творческой активности, необходимые для их профессиональной подготовки. В статье также предложены рекомендации по совершенствованию ансамблевых занятий, расширению репертуара и использованию современных педагогических технологий в процессе обучения игре на дутаре.

Ключевые слова: *дутар, ансамблевое исполнительство, ансамблевые навыки, музыкальное образование, музыкальная педагогика, народные музыкальные инструменты, исполнительское мастерство, музыкальный слух, чувство ритма, репертуар, коллективное исполнительство, педагогический опыт, сценическая культура, профессиональная подготовка.*

USMONOVA Dilafruz Madamin qizi
Highest Category Teacher
Department of Folk Instrument Performance
Fergana Specialized School of Arts

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING ENSEMBLE SKILLS IN DUTAR PERFORMANCE

ABSTRACT

This article analyzes the role and significance of ensemble performance in the development of dutar performance skills. The study examines the place of the dutar in Uzbek national musical art, the essence and objectives of ensemble performance, the process of developing ensemble skills among dutar performers, and the role of ensemble practice in improving performing mastery. In addition, the pedagogical significance of ensemble training in dutar education is discussed from a scientific and pedagogical perspective. The research findings indicate that ensemble activities contribute to the development of performers' technical proficiency, musical hearing, rhythmic stability, stage performance culture, and artistic thinking. Ensemble training also fosters teamwork, responsibility, and creative activity, which are essential components of professional preparation. The article proposes recommendations for improving ensemble training, enriching the repertoire, and

implementing modern pedagogical technologies in the process of teaching dutar performance.

Keywords: *dutar, ensemble performance, ensemble skills, music education, music pedagogy, folk musical instruments, performance mastery, musical hearing, sense of rhythm, repertoire, collective performance, pedagogical experience, stage culture, professional training.*

Dutor Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimiy va keng tarqalgan milliy torli cholg‘ularidan biri bo‘lib, asrlar davomida xalqning ma’naviy hayoti, musiqiy tafakkuri va madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib kelgan. Ushbu cholg‘uning o‘ziga xos mayin va jarangdor tembri xalq qo‘shiqlari, maqom yo‘llari, an’anaviy cholg‘u kuylar hamda zamonaviy bastakorlar ijodida keng qo‘llanilishiga zamin yaratgan. Shu bois dutor nafaqat ijrochilik vositasi, balki xalqimizning boy musiqiy merosi, milliy qadriyatlari va ijrochilik an’analarini o‘zida mujassam etgan muhim madaniy boylik sifatida e’tirof etiladi.

Tarixiy manbalarda dutorga o‘xshash torli cholg‘ular Markaziy Osiyo hududida qadim zamonlardan mavjud bo‘lgani qayd etilgan. Asrlar davomida ushbu cholg‘u takomillashib, xalq orasida keng ommalashgan hamda o‘zbek milliy musiqa madaniyatining ajralmas qismiga aylangan.[4.6] Tuzilishining soddaligiga qaramay, dutorning badiiy va texnik imkoniyatlari nihoyatda keng bo‘lib, u turli janr va uslublardagi asarlarni yuksak badiiy saviyada ijro etish imkonini beradi. Mazkur jihatlar dutorning professional musiqa san’atida ham yetakchi cholg‘ular qatoridan mustahkam o‘rin egallashiga xizmat qilgan.

Bugungi kunda dutor cholg‘usi professional musiqa ta’limi tizimida muhim o‘rin tutadi. Ixtisoslashtirilgan musiqa va san’at maktablari, san’at kollejlari hamda oliy ta’lim muassasalarida dutor ijrochiligi bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda. Ta’lim jarayonida talabalarga cholg‘uning texnik imkoniyatlari, ijro usullari, milliy va zamonaviy repertuar, sahna madaniyati hamda ijrochilik talqini bosqichma-bosqich o‘rgatiladi. Bu esa milliy ijrochilik maktabining uzluksiz rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy musiqa san’atini rivojlantirishga qaratilayotgan davlat siyosati dutor ijrochiligini yanada takomillashtirishga keng imkoniyat yaratmoqda. Respublika va xalqaro miqyosda o‘tkazilayotgan festival, tanlov va ijodiy loyihalar yosh sozandalarning kasbiy mahoratini oshirish, milliy cholg‘u ijrochiligini ommalashtirish hamda xalqaro madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Professional musiqa ta’limi tizimida dutor ijrochilarini tayyorlash nafaqat yakka ijrochilik ko‘nikmalarini rivojlantirishni, balki ansambl ijrochiligi madaniyatini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Chunki zamonaviy sozandadan

individual mahorat bilan bir qatorda jamoa tarkibida ijodiy hamkorlik qilish, musiqiy muloqotga kirishish, umumiy badiiy talqinni yaratishda faol ishtirok etish kabi kompetensiyalar ham talab etiladi.

Muallifning oliy ta'lim muassasasidagi ko'p yillik pedagogik faoliyati davomida olib borgan kuzatuvlari va amaliy tajribasi shuni ko'rsatadiki, ansambl mashg'ulotlari dutor ijrochilarining kasbiy shakllanishida alohida pedagogik ahamiyatga ega. Mashg'ulotlar jarayonida ansambl tarkibida muntazam faoliyat olib borgan talabalar musiqiy eshituv, ritm hissi, sahna madaniyati, ijodiy tafakkur hamda jamoa bilan ishlash kompetensiyalarini sezilarli darajada tezroq egallaydilar. Xususan, ansambl mashg'ulotlarini bosqichma-bosqich murakkablashtirish, repertuarni ilmiy-metodik asosda tanlash va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli oshirishi pedagogik amaliyotda o'z tasdig'ini topgan.

Ansambl ijrochiligi musiqa san'atining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bir nechta ijrochining yagona badiiy g'oya asosida musiqiy asarni hamkorlikda talqin etish jarayonini ifodalaydi. Musiqa amaliyotida ansambl tushunchasi faqat jamoaviy ijroni emas, balki ijrochilar o'rtasidagi musiqiy muloqot, o'zaro tinglash madaniyati, ijodiy hamkorlik va badiiy uyg'unlikni ham o'z ichiga oladi. Xalq cholg'ulari ansambllarida har bir cholg'u muayyan vazifani bajarib, umumiy musiqiy tuzilmaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli ansambl ijrochiligi ijrochidan yuksak kasbiy tayyorgarlik, mas'uliyat, intizom va jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini talab etadi.

Professional musiqa ta'limida dutor ijrochilarida ansambl ko'nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon talabalarning yakka ijrochilik mahoratini rivojlantirish bilan bir qatorda ularni jamoaviy ijro faoliyatiga tayyorlash, musiqiy tafakkurini kengaytirish va badiiy talqin madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ansambl mashg'ulotlari davomida talaba individual ijrodan jamoaviy ijroga o'tadi hamda umumiy badiiy maqsad yo'lida o'z ijrosini boshqa ijrochilar bilan uyg'unlashtirishni o'rganadi.

Ko'p yillik pedagogik faoliyatim davomida olib borgan kuzatuvlari shuni ko'rsatadiki, ansambl mashg'ulotlariga muntazam jalb etilgan talabalarda musiqiy eshituv, ritmik barqarorlik, sahna madaniyati hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi. Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar bir-birini tinglash, umumiy temp va dinamikani saqlash, musiqiy iboralarni uyg'un talqin qilish hamda jamoa bilan ishlash malakalarini bosqichma-bosqich egallaydilar. Ushbu pedagogik kuzatishlar ansambl mashg'ulotlarining bo'lajak dutor ijrochilarini tayyorlashdagi muhim ahamiyatini tasdiqlaydi.

Ansambl ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy shartlaridan biri musiqiy eshituv qobiliyatini rivojlantirishdir. Dutor ijrochisi nafaqat o'z partiyasini

mukammal ijro etishi, balki ansambldagi boshqa cholg‘ularning partiyalarini ham tinglay olishi, ularning musiqiy vazifalarini anglab yetishi hamda umumiy badiiy talqinga mos ravishda ijro etishi lozim. Mashg‘ulotlarda asarning shakliy tuzilishi, melodik rivojlanishi, asosiy va yordamchi kuy yo‘llari, faktura hamda garmonik harakat muntazam tahlil qilinishi talabalarda polifonik va garmonik eshituvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ansambl faoliyatida metroritmik uyg‘unlik alohida ahamiyat kasb etadi. Yakka ijrochilikda ayrim hollarda erkin talqin qilish imkoniyati mavjud bo‘lsa, ansamblda har bir ijrochi umumiy ritmik harakat va temp barqarorligiga qat’iy rioya qilishi zarur. Shu bois mashg‘ulotlarda metronom bilan ishlash, murakkab ritmik mashqlarni bajarish, birgalikda sanash usullaridan foydalanish hamda umumiy tempni his qilishga yo‘naltirilgan mashqlar tizimli ravishda tashkil etiladi. Pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, mazkur metodlar talabalarning ritmik aniqligini sezilarli darajada oshiradi.

Ansambl mashg‘ulotlarining samaradorligi repertuar tanloviga ham bevosita bog‘liq. Dastlab oddiy fakturaga ega bo‘lgan xalq kuylaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lsa, keyingi bosqichlarda maqom yo‘llari, murakkab shakldagi xalq kuy-qo‘shiqlari va zamonaviy bastakorlarning ansambl asarlarini o‘rganishga o‘tiladi. Repertuarning bosqichma-bosqich murakkablashuvi talabalarning texnik, badiiy va ijodiy imkoniyatlarini izchil rivojlantiradi.

Yana shuni aytish mumkinki, ish faoliyatim davomida repertuarni talabalarning tayyorgarlik darajasiga mos ravishda tanlash, ijodiy topshiriqlarni differensial tashkil etish hamda mashg‘ulotlarda interfaol metodlardan foydalanish ijobiy natijalar bergani kuzatildi. Xususan, kichik guruhlarda ishlash, o‘zaro tinglash, audio va video tahlil, sahna mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda konsert-amaliyotlar talabalarning ansambl madaniyatini shakllantirishda yuqori samaradorlikni namoyon etdi.

Musiqa ta’limi amaliyotida ansambl mashg‘ulotlarining muntazam tashkil etilishi dutor ijrochilarining kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Ansambl tarkibida faoliyat yuritgan talabalar sahna madaniyatini egallaydi, tinglovchilar bilan erkin muloqot qilishni o‘rganadi, ijrochilik mas’uliyatini his etadi hamda kelgusidagi professional faoliyatga puxta tayyorlanadi. Shu bois zamonaviy musiqa ta’limida ansambl mashg‘ulotlari dutor ijrochilarini tayyorlashning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari hamda ixtisoslashtirilgan musiqa maktablarida ansambl mashg‘ulotlarining mazmunini yanada takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, milliy va jahon musiqa merosiga oid repertuarni boyitish, raqamli ta’lim

vositalaridan foydalanish hamda talabalarni ijodiy izlanishga yo‘naltirish orqali ansambl mashg‘ulotlarining samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, mazkur tadqiqotda dutor ijrochilarida ansambl ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik va amaliy asoslari kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ansambl ijrochiligi bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ansambl mashg‘ulotlari jarayonida talabalarning musiqiy eshituvi, ritm hissi, texnik tayyorgarligi, badiiy tafakkuri, sahna madaniyati va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari izchil shakllanadi hamda takomillashadi.

Tadqiqot davomida dutor cholg‘usining o‘zbek milliy musiqa san’atidagi o‘rni ham tahlil qilindi. Olingan natijalar dutorning ko‘p asrlik milliy ijrochilik an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan, professional musiqa ta’limi tizimida muhim o‘rin egallagan va yosh ijrochilarni tayyorlashda samarali pedagogik vosita bo‘lib xizmat qilayotgan cholg‘ulardan biri ekanligini tasdiqladi.

Ansambl faoliyatining nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish natijasida jamoaviy ijro musiqiy hamkorlikning eng samarali shakllaridan biri ekanligi aniqlandi. Ansambl mashg‘ulotlari ijrochilarning bir-birini tinglashi, umumiy badiiy talqinni yaratishi, ijro intizomini saqlashi va sahna madaniyatini rivojlantirishida muhim o‘rin tutadi. Bu borada, xalq cholg‘ulari ansambllarida dutorning badiiy va ifodaviy imkoniyatlari yanada keng namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari hamda muallifning pedagogik faoliyati davomida olib borgan kuzatuvlari shuni ko‘rsatdiki, ansambl mashg‘ulotlarini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish talabalarning kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Mashg‘ulotlarda repertuarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, individual yondashuvni qo‘llash, interfaol metodlardan foydalanish, audio va video tahlil, konsert amaliyotlari hamda ijodiy topshiriqlarni tizimli tashkil etish yuqori pedagogik samaradorlikni ta’minlaydi.

Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatdiki, ansambl mashg‘ulotlarida muntazam ishtirok etgan talabalar musiqiy eshituv, ritmik aniqlik, ijodiy mustaqillik, sahna madaniyati va jamoa bilan ishlash kompetensiyalarini tezroq egallaydilar. Natijada ularning professional ijrochilik mahorati, musiqiy tafakkuri hamda ijodiy faolligi sezilarli darajada rivojlanadi. Mazkur holat ansambl mashg‘ulotlarining nafaqat amaliy, balki muhim pedagogik ahamiyatga ham ega ekanligini tasdiqlaydi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- dutor ijrochiligi bo‘yicha o‘quv dasturlarida ansambl mashg‘ulotlari ulushini oshirish;
- xalq cholg‘ulari ansambllari uchun zamonaviy o‘quv-metodik qo‘llanmalar va repertuar to‘plamlarini yaratish;

- milliy hamda zamonaviy bastakorlar asarlaridan iborat ansambl repertuarini kengaytirish;
- ansambl mashg‘ulotlarida raqamli ta’lim resurslari va innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng qo‘llash;
- talabalarning sahna amaliyoti, ijodiy loyiha va konsert faoliyatini tizimli ravishda tashkil etish;
- bo‘lajak dutor ijrochilarida jamoaviy ijrochilik madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan maxsus metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, ansambl faoliyati dutor ijrochilarining kasbiy mahoratini shakllantirish va takomillashtirishning eng muhim pedagogik omillaridan biri hisoblanadi. Ansambl mashg‘ulotlari ijrochining texnik tayyorgarligi, musiqiy tafakkuri, badiiy didi, sahna madaniyati va ijodiy faolligini kompleks rivojlantiradi. Shu sababli musiqa ta’limi muassasalarida ansambl mashg‘ulotlarini ilmiy-metodik asosda tashkil etish, ularning mazmunini zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan boyitish hamda pedagoglarning ilg‘or tajribalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish dutor ijrochiligini yanada rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arabov I. An’anaviy cholg‘u ijrochiligi (dutor) o‘quv qo‘llanma T.:2018
2. Safarova M. - "Dutor mutaxassisligi bo'yicha" o'quv qo‘llanma" T.: 2004.
3. Toshpo‘ltova I. An’anaviy cholg‘u ijrochiligi (dutor). T., 2018
4. Yunusov U. Xalq cholg‘ularida ijrochilik Dutor T.: 2021
5. Ziyayeva M. Dutor. T., 2008.